

PAPER

# BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH KO'NIKMALARINI INGLIZ TILIDA SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK MUAMMOLAR

Kamalova Saida Maxamat-Ibraximovna<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti (PhD)

\*kamalovasaida82@gmail.com

## Abstract

Mazkur maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini ingliz tilida shakllantirish muammosi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Ingliz tilining xalqaro maqomi, ilm-fan va texnologiya tili sifatida ahamiyati yoritilib, ushbu tilni erta o'rgatish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar tahlil qilinib, ularning samarali yechimlari taklif etilgan. Maqola pedagogika va til o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Key words:** Lingvistik xususiyatlari; kognitiv rivojlanish; kontekstual idrok; retseptiv qobiliyatlar.

## Kirish

Bugungi kunda chet tilini o'qitish global tendensiyalardan biridir. Ingliz tilini bilish nafaqat xalqaro muloqotda, balki ta'limning boshqa fanlarini o'zlashtirishda ham muhim omil hisoblanadi. Bu, nafaqat lingvistik qobiliyatni rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich ta'limda ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirish kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishning asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so'ng dunyoning boshqa rivojlanayotgan davlatlari qatorida barcha sohalarda ya'ni, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda jumladan ta'lim tizimida ham bosqichma bosqich islohotlar amalga oshirildi. "Ta'lim to'g'risida"gi [1] Qonunda uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha islohotlarni amalga oshirish doirasida chet tillarni o'qitish ustuvor vazifa etib belgilandi [2]. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012 yil 12-dekabrda 1875-sonli Prezident qarorining qabul qilinishi [3] va xorijiy tillarni boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitishning yo'lga qo'yilishi ta'lim sohasida jiddiy islohatlarning o'tkazilishiga olib keldi. Bu qaror, ayniqsa ingliz tilini o'qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilgan muhim hujjatlardan biridir. Ushbu qarorga muvofiq, 2013-2014 o'quv yilidan boshlab

umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinfidan ingliz tilini o'qitish yo'lga qo'yildi [4].

## Adabiyotlar tahlili

Dunyo bo'ylab ingliz tilining keng qo'llanilishi tufayli ingliz tilida o'qish ko'plab sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega, ingliz tili xalqaro tildir, bu fan va texnika tili va zamonaviy ixtirolar va kashfiyotlar tilidir.

Shu o'rinda o'qish qobiliyati va o'qish ko'nikmasini farqlab olish muhimdir. O'qish qobiliyati (Reading Ability) bu o'quvchining umumiy qobiliyati bo'lib, tabiiy va individual rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. U so'zlarni taniy olish, matnni tushunish, o'qish tezligi va ravonligi, mantiqiy tahlil qilish, o'qilgan ma'lumot asosida fikr yuritish kabilarni o'z ichiga oladi. O'qish ko'nikmasi (Reading Skill) bu maqsadli o'rgatiladigan amaliy ko'nikma bo'lib, uni mashq qilish va o'qitish orqali shakllantirish mumkin. O'qish ko'nikmasiga harf va so'zlarni ajratib tanib olish, so'zlarning talaffuzini bilish, matn bo'yicha asosiy ma'lumotlarni ajratish, qisqa va murakkab gaplarni tushunish, o'qilgan matn bo'yicha savollarga javob bera olish kiradi.

Ma'lumki, boshlang'ich maktab yoshi chet tilini o'rganish

uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bolaning taqlid qilish qobiliyati, tabiiy qiziquvchanligi va yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoji chet tilini o'rganish oldida turgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. O'qituvchi chet tilidan foydalanib, bir tomondan yosh o'quvchilarni boshqa madaniyat bilan tanishtirsa, ikkinchi tomondan, turli turmush tarziga hurmat va bag'rikenglikni tarbiyalaydi. Hozirgi kunda ingliz tili boshlang'ich va hatto maktabgacha ta'limda ham o'qitiladi. Shuni yodda tutish kerakki, har bir bolaning chet tilini o'rganish uchun o'ziga xos ichki rag'bat bor va o'qituvchining vazifasi bu motivatsiyani rivojlantirishdir. Boshlang'ich bosqichda ingliz tilini o'rgatishning bir qancha sabablari bor.

Asosiylari quyidagilar:

\* lingvistik rivojlanish uchun eng qulay davr hisoblanadi, keyingi lingvistik ta'lim uchun mustahkam asos yaratishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin;

\* erta boshlash ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish uchun maksimal vaqtni ta'minlaydi - qanchalik erta boshlasa, o'rganish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi;

\* maktabgacha yoki boshlang'ich maktab bosqichida birinchi chet tilini o'rganayotgan bolalarning o'rta maktabda ikkinchi chet tilini o'rganish imkoniyati ko'proq bo'ladi;

\* bolalar erta yoshdanoq maqsadli tilda (chet tilida) so'zlashadigan mamlakatlar madaniyati bilan tanishadilar; ular atrofda insonlarga bag'rikeng va hamdard bo'lib o'sadi;

\* erta yoshda chet tilini o'rganish amaliy ahamiyatga ega bo'lishidan tashqari, bolalarning ona tilidan yaxshiroq foydalanish qobiliyatini rag'batlantiradi;

\* tillarni o'rganish bolalarning xotirasini, tafakkurini, idrokini, tasavvurini va boshqalarni yaxshilaydi [5].

Respublikamizda davlat umumta'lim maktablarida ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladi. Ta'lim berish jarayonida ingliz tilida til ko'nikmalarini shakllantirishda xususan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki o'qish nafaqat individual bilim olish vositasi balki kelajakda ta'lim jarayoni va muloqotning asosiy poydevoridir. Biroq o'quvchilar duch keladigan muammolar quyidagi omillar bilan bog'liq, ya'ni o'quvchilarning ona tili va ingliz tili o'rtasidagi farqlar, ta'lim tizimidagi yondashuvlar, o'qituvchilarning malakaviy tayyorgarligi, darslik va metodik resurslarning yetishmovchiligi, o'quvchilarning psixologik va fiziologik muammolari, motivatsiya bilan bog'liq muammolar va boshqalar.

Ushbu pedagogik muammo bolalarning lingvistik xususiyatlari, kognitiv rivojlanish bosqichlari hamda o'qitish metodikasiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammo pedagogik izlanishlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, chet tilida o'qish o'quvchilarning lug'at boyligi, fonetik va grammatik bilimlari, matnni tushunish qobiliyati hamda kontekstual idrok etish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. O'qish ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, mustaqil fikrlashga va nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi [6].

O'qish bu shunchaki chet tilidan ona tiliga dekodlash (o'girish) emas. Ba'zi insonlar o'qishni harflarni bosma sahifalardan tovushlarga o'tkazish jarayoni deb o'ylashadi. Biroq, o'qish bundan murakkabroq jaryondir.

O'qish so'zlar va jumalarni tanib olish va tushunishni o'z ichiga oladi [7]. F. Smit o'qishni yozma yoki bosma matndan ma'no chiqarish jarayoni deb ta'riflagan [8]. Venkatesvaran esa o'qishni uchta omilning o'zaro ta'siri sifatida ta'riflagan: asosiy bilimlar, kontseptual qobiliyatlar va o'rganish strategiyalari [9]. Chet tilida o'qish yanada murakkabroq. Shu munosabat bilan uzoq muddatli xotirada ma'lumotni tartibga soluvchi sxema yoki kognitiv tuzilmalar muhim rol o'ynaydi [10]. Sxema nazariyasi o'quvchilarga parchani tushunish uchun o'zlarining asosiy bilimlarini matndagi ma'lumotlar bilan birlashtirishga imkon beradi [11]. Kognitiv sxema

ularga kiruvchi ma'lumotlarni oldindan saqlangan ma'lumotlar bilan bog'lash imkonini beradi [12]. Chet tilida o'qishni o'rganish odatda o'qituvchi, o'quvchi va matn o'rtasida sodir bo'ladigan sinfdagi o'zaro ta'sirni o'z ichiga olgan jarayondir. Sinfdagi o'zaro ta'sirdan tashqari, o'quv kontekstlari ham o'qishga ta'sir qiladi. Ushbu kontekstlarga jismoniy kontekst, kommunikativ kontekst va ijtimoiy kontekst kiradi. Sinf xonasi, laboratoriya, resurs xonasi, o'quv materiallari, stullar va stollar kabi jismoniy kontekstlar o'quv jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday, og'zaki, yozma, ramziy va tana tili va ijtimoiy kontekst kabi kommunikativ kontekst ham o'rganishga muhim ta'sir ko'rsatadi. F. Smit samarali ta'lim jarayoni uchun ushbu kontekstlarni aralashtirishga e'tibor qaratadi [8].

## Natijalar va muhokama

Ba'zi tilshunoslar o'qish va tinglashni passiv yoki retseptiv qobiliyatlar, yozish va gapirishni esa faol yoki samarali qobiliyat deb bilishadi. F. Smit ularning nuqtai nazariga qo'shilmaydi. U o'qishni faol qobiliyat sifatida belgilaydi. U o'quvchining bosma matndan ma'no yaratishda faol ishtirok etishining dalillarini taqdim etadi. O'quvchilar matnning ma'nosini tushunish uchun matn bilan faol munosabatda bo'lishadi. Asosiy fikrlarni olish, matnni sharhlash va tushunish, savollariga javob berish o'quvchilarni o'qishga faol jalb qilishning ayrim shakllaridir. O'quvchilarga o'qish, ko'rish va tinglash ko'nikmalari qabul qilingan muloqotni tushunishga yordam beradi. Boshqa tomondan, o'quvchilar boshqa ikkita ko'nikma, masalan, gapirish va yozish, o'z fikrlarini boshqalarga etkazishga yordam beradi [8].

Yozma matnni yaxshi tushunish va tushunish qobiliyati o'rganilayotgan tilning lug'at bilimi va fonologiyasiga tayanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar, olimlar, va o'qituvchilarning ta'kidlashicha, lug'at o'qish ko'nikmalari jarayonini rivojlantirishi mumkin. So'z boyligi o'qish ko'nikmasiga muhim ta'sir ko'rsatadi [13]. Shuni e'tiborga loyiqlik, o'quvchilar kundalik hayot suhbatlari orqali erta yoshda lug'at bilimlarini egallashlari mumkin. Bu bosqichda o'quvchilar nafaqat yangi so'zlarni o'rganadilar, balki bu so'zlardan unumli foydalanishga ham harakat qiladilar.

O'qishda ma'noni anglatuvchi eng kichik grafik birlik so'z deb nomlanadi, bu odatda idrok birligi sifatida qabul qilinadi. O'quvchi uchun ma'lum bir lug'at boyligini egallash juda muhimdir. O'qishni tushunish bilan bog'liq lug'at ikki turga bo'linadi: passiv va potentsial lug'at. Passiv lug'at - bu o'qish paytida aniqlanishi mumkin bo'lgan so'zlarni anglatadi, chunki vizual va eshitish-motor belgilar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi, bu talabning til tajribasida mavjudligi sababli o'qish paytida tanib olish mumkin bo'lgan so'zlar angatlanadi. Boshqa tomondan, potentsial lug'at natqda ilgari ishlatilmagan, ammo ularning ma'nosini o'qish paytida tashqi ma'lumot manbalarisiz aniqlash mumkin bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Ushbu so'zlarning ma'nosini kontekst, morfemalar bilan tanishish (so'z yasovchi elementlarni) bilish tufayli yoki ona tili bilan bir o'zakli so'zlar bo'lganidan fahmlab olinishi mumkin [6].

Boshqa bir qator tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra imloni bilish aniq talaffuz va lug'atni o'rganishni kengaytirishga yordam beradi va bu tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga olib keladi [14]. Ovozli imlo ko'nikmalarisiz o'quvchilar o'qish qobiliyatini samarali rivojlantira olmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari imloni yaxshilashda muammolarga duch kelishadi. Yana bir asosiy jihat imloni saqlab qolishdir, agar ularga to'g'ri imloni aniqlab, imlo tajribasini saqlab qolishni rivojlantirilsa, bu o'quvchilarda o'qish samaradorligi va tezligini oshirish uchun qadriyat yaratadi. Bu fakt Bryant va Gosvami tomonidan tasdiqlangan, chunki o'quvchilar o'qish ko'nikmalarini egallasa, so'zlarni o'qishning bo'shqa shakllari bilan bog'lash orqali yangi so'zlarni juda oson o'rganadilar. Ovoz va imlo tizimini bilish tilni o'rganishda, ayniqsa

o'qish ko'nikmalarida asosiy elementlaridan biridir [15]. Shu o'rinda aytib o'tish muhim, o'zbek tili va ingliz tilida alfavit va fonetika farqlari ya'ni tovush-harf mosligini tushunish muammosi boshlang'ich sinf o'quvchilarida asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu muammoni J.J. Jalolov quyidagicha ta'riflagan ingliz tili harf va harf brikmalarining xususiyatlari tahlil qilinsa, unda o'zbek tiliga mos keladigan va keskin farq qiladigan harf va harf brikmalari mavjudligini ko'ramiz. O'qilish qoidalari quyidagicha tasniflanadi: unli harflarning to'rtta bo'g'ida kelishi, undosh harflarning o'qilishi, unli harf brikmasi (digraf), undoshlar brikmasi (undosh digraf), unli bilan undosh brikmasining o'qilishi, o'qilmaydigan unli/undosh harflar [6]. Bunga misol tariqasida alfavit va yozuv tizimidagi farqlarni olishimiz mumkin. O'zbek tili lotin alifbosida 29 ta harfdan iborat bo'lib, har bir harf ma'lum bir tovushni ifodalaydi. Ingliz tilida esa 26 ta harf mavjud, lekin har bir harf bir necha xil talaffuzga ega bo'lishi mumkin. O'zbek tilida harflar fonetik jihatdan deyarli doimiy tovush beradi. Masalan, "a" harfi doim [a] tovushini beradi. Ingliz tilida esa harflar turli holatlarda har hil o'qilishi mumkin, Masalan, "a" harfi *cat* [kæt], *car* [kr] va *cake* [kek] kabi turlicha talaffuz qilinadi. Yana bir fonetik va talaffuz qiyinchiliklaridan biri ingliz tilidagi ba'zi tovushlar o'zbek tilida mavjud emas, masalan, **th** harf brikmasi beradigan [j] va [ð] tovushlari (*think*, *this*) – o'zbek tilida bunday tovush mavjud emas, shuning uchun o'quvchilar uni [s] yoki [t] kabi talaffuz qilishadi (*think* → *sink*). **r** tovushi (*red*, *river*) – ingliz tilida "r" talaffuzi o'zbek tilidagidan farq qiladi, o'quvchilar ko'pincha uni o'zbekcha [r] kabi talaffuz qilishadi. **v-w** farqi – o'zbek tilida [w] tovushi mavjud emas, shuning uchun *west* va *vest* so'zlari bir xil talaffuz qilinishi mumkin.

O'zbek tilida so'z qanday yozilgan bo'lsa shunday o'qiladi. Biroq ingliz tilida bu qoida har doim ishlamaydi, ya'ni ingliz tilida so'z yozilishi va o'rtasida nomuvofiqlik mavjud. Masalan, **knife** – [naf] (k tovushi talaffuz qilinmaydi), **write** – [rat] (w tovushi yo'q), **rough** – [rf] (gh harf brikmasi [f] deb o'qiladi). Bu tafvutlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ingliz tilidagi so'zlarni o'zbek tilidagi tovush-harf mosligiga taqqoslab o'qishga harakat qiladilar. Bu noto'g'ri talaffuz qilish, tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin, tinglab tushunish qobiliyatlari ham noto'g'ri rivojlanishi mumkin. Bu muammo o'quvchilarning talaffuzi, o'qish va yozish savodxonligi va umumiy til o'rganish jarayoniga ta'sir qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda ba'zi psixologik va fiziologik muammolar uchraydi. Ushbu muammolar ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir qiladi va ularni hal etish maxsus ilmiy yondashuvlarni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, notanish tilda o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarida stress va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi [16]. Til o'rganish jarayonidagi murakkabliklar sababli bolalar noto'g'ri o'qishdan qo'rqadi va o'z bilimlarini namoyish qilishga tortinadi. Rus olimi Vigotskiyning rivojlanish psixologiyasi nazariyasiga ko'ra ma'lum va empirik tarzda tasdiqlangan haqiqat shundaki, o'rganish bolaning rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak. Masalan, o'qish, yozish va arifmetikani o'rgatish muayyan yosh darajasida boshlanishi kerakligi aniqlangan [17]. Uning tadqiqotlari kichik yoshdagi o'quvchilar rivojlanishi va o'rganishi jarayonida o'yinlar va visual yondashuvlar samaradorligini tasdiqlaydi. O'rganilgan tadqiqotlarga ko'ra, 5-7 yoshli bolalarda diqqatni bir faoliyatga jamlash va uzoq vaqt ushlab turish qiyin. Uzun va murakkab matnlar bolaning diqqatini pasaytirishi va qiziqishini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin [18]. Yana bir muhim jihatlardan biri bolalar uchun darslar faqat grammatikaga asoslangan bo'lsa motivatsiya pasayadi, ular ingliz tilini real hayotda amaliy bog'lashni bo'lmasa o'qishga qiziqishlari pasayadi [19]. O'quvchilarda xotira va tushunish muammolari tadqiq qilinganda, kichik yoshdagi bolalarda ishchi xotira (working memory) hali yahshi rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Bu esa yangi so'zlarni eslab qolish va matnni tushunishda qiyinchilik tug'diradi [20]. Hozirgi davrda ortib borayotgan ekran ta'siri ham tadqiqotchilar fikriga ko'ra ta'lim olish jarayoniga

salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ya'ni haddan tashqari ekran oldida vaqt o'tkazish (raqamli qurilmalar, texnologiyalar) bolalarning diqqatini pasaytirishi va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda muammolar keltirib chiqarishi mumkin [21].

## Xulosa

Yuqorida berilgan tadqiqotchilarning fikrlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatini qisqa vaqt davomida ushlab turishi sababli ingliz tili darslarida turli xil interfaol o'yinlar va mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, bolalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq. Darslar qisqa segmentlarga bo'linib, dars materiallari real hayot bilan bog'langan holda, video audio materiallar bilan boyitilsa o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, diqqatini ushlab turish osonlashadi, chunki bugungi fan texnika taraqqiyoti shuni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, kichik yoshdagi o'quvchilarning tasavvur qilish qobiliyati yuqori bo'lgani sababli visual materiallar (rasmli kartochkalar, grafikalar, interaktiv qo'llanmalar) harakatga asoslangan metodlar (Total Physical Response) ga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Biroq raqamli texnologiyalar va an'anaviy kitob o'qish orasida balans yaratish muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalarini ingliz tilida shakllantirishda muammolarni aniqlash va ularga mos yechimlarni qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## References

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-637-son. 2020 yil 23 sentyabr.
2. Risqulova K.J. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologiyistik kompetensiyalarini shakllantirish tizimi. Diss...ped.fan.dokt. -Toshkent, O'ZDJTU, 2017. -97 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son Qarori. -Xalq so'zi. -24.0(5660). -Toshkent, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori 2013 yil, 8 may 124-sonli Qaror// Xalq ta'limi, 2013, 4-son.
5. Elena Stakanova, Elena Tolstikhina. Different Approaches to Teaching English as a Foreign Language to Young Learners. Third Annual International Conference "Early Childhood Care and Education", 14.6(2014). -p.456-460
6. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi; chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) tlalabari uchun darsligidan. Toshkent; O'qituvchi, 2012. -255 b.
7. Cohen, J. (2007). A Case Study of a High School English Learner and His Reading. *Journal of Adolescent and Adult Literacy*, 51(2), 164-175.
8. Smith, F. (1976). Learning to read by reading. *Language Arts*, 53(3), 297-322.
9. Venkateswaran, S. (1995) Principles of Teaching English. Madras: Vikas Publishing House. Pvt. Ltd.
10. Singhal, M. (1998). A comparison of L1 and L2 reading: Cultural differences and schema. *The internet TESL journal*, 4(10)
11. Stott, N. (2001). Helping ESL students become better readers: Schema theory applications and limitations. *The Internet TESL Journal*, 7(11), 1-10

12. Widdowson, H. G. (1983). Learning purpose and language use (pp. 54-54). Oxford: Oxford University Press.
13. Lee, S., and Pulido, D. (2017). The impact of topic interest, L2 proficiency, and gender on EFL incidental vocabulary acquisition through reading. *Language Teaching Research*, 21(1), 118-135.
14. Ehri, L. C. (2014). Orthographic mapping in the acquisition of sight word reading, spelling memory, and vocabulary learning. *Scientific Studies of Reading*, 18(1), 5-21.
15. Bryant, P., and Goswami, U. (2016). Phonological skills and learning to read: Rotledge.
16. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., and Cope, J. (1986). Foreign Language Classroom Anxiety. *The Modern Language Journal*, 70(2), 125-132.
17. Vygotsky L.S. *Mind in Society*-Harvard University Press,1978.-85 p.
18. Posner, M. I., and Rothbart, M. K. (2007). *Educating the Human Brain*. American Psychological Association.
19. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
20. Baddeley, A. D. (1992). Working Memory. *Science*, 255(5044), 556-559.
21. Christakis, D. A., Ramirez, J. S. B., and Ferguson, S. M. (2018). How Early Media Exposure Affects Cognitive Development. *Pediatrics*, 142(1), e20173721.